

УЎТ: 375.035

МУАММОЛИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДАГИ ЎРНИ

З.Қ. Исмоилова - п.ф.д., профессор

Ш.А. Раупова - катта ўқитувчи

Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти

Аннотация

Муаммоли таълимнинг мақсади, турли ўқув фанлари бўйича дарс ўтиш жараёнида муаммоли вазиятлар ҳосил қилиши ва уларни ечиш усуллари, муаммоли вазиятни ҳал этиш даражалари, муаммоли дарсларни ташкил этишдаги асосий фикр берувчи суҳбат босқичлари, муаммоли таълимни ташкил этиш ва бошқариш босқичлари, муаммоли таълим технологиясининг талабаларга предметнинг мавзусидан келиб чиққан турли муаммоли масала ёки вазиятларнинг ечимини тўғри топишларига ўргатишга хос фикрлар, уларда муаммони ечишнинг баъзи усуллари билан таништириш ва муаммони ечишга мос услубларни тўғри танлашга ўргатиш масалаларига бағишланган. Олий таълим муассасаларида ўқув режасидаги барча фанлардан муаммоли таълим технологияларидан фойдаланиш, муаммонинг келиб чиқиш сабабларини ва муаммони ечишдаги хатти-ҳаракатларни тўғри аниқлашга имкон берувчи омилларни таҳлил қилиш ва унинг дарс жараёни самарадорлигини оширишга имкон берувчи тавсиялар келтирилган.

Таянч сўзлар: муаммоли таълим, таълим технологияси, ўқитиш технологияси, муаммо, муаммоли вазият, муаммоли масала, қобилият, дарс жараёни, мулоқот, фикр, методика, савол-жавоб методикаси, суҳбат.

РОЛЬ ПРОБЛЕМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ

З.Қ. Исмоилова, Ш.А. Раупова

Аннотация

Цель проблемного образования в процессе преподавания различных учебных предметов: создание проблемных ситуаций, этапов диалога предоставляющие основную идею при организации проблемных уроков, внедрение проблемного обучения и этапы его управления, технология проблемного обучения, создание у студентов личного мнения при нахождении правильных решений по возникшим различным проблемным вопросам и ситуациям исходя из темы предмета, ознакомление студентов с некоторыми способами решений проблем и обучению выбора правильного решения проблемы. Приведены рекомендации по использованию технологии проблемного обучения в высших учебных заведениях по всем предметам учебного плана, причинам возникновения проблемы и анализ признаков дающие возможность выявления правильных действий в процессе решения проблемы и которые дают возможность повышения его эффективности в процессе урока.

Ключевые слова: проблема образования, технология образования, технология обучения, проблема, проблемная ситуация, проблемный вопрос, способность, процесс урока, общение, мнение, методика, методика вопрос-ответ, диалог.

THE ROLE OF PROBLEMS IN THE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES DURING THE LEARNING PROCESS

Z.Q. Ismoilova, Sh.A. Raupova

Abstract

The goal of problem education the teaching of different subjects, the creation of problematic situations, as well as the stage of dialogues that provide the basic idea in organizing problem lessons, the creation of problematic education and the stages of its management, the technology of problem education, the creation of students personal opinions for finding providential solutions to the various problems and situations that have arisen on the basis of the subject, acquaintance of students with some ways of solving problems and training the choice of tests way to solve the problem. The use of technology of problematic education in higher education institutions in all subjects that are included in the curriculum, the causes of the problem and the analysis of features that enable the identification of correct actions in the process of solving the problem, and provide recommendations that make it possible to increase its effectiveness in the course of the lesson.

Key words: Problem of education, technology of education, technology of teaching, problem, problematic situation, problematic question, ability, process of lessons, communication, mind, method, method of question-answer, dialog.

Қириш. Муаммоли таълим технологияси жуда қадим замонлардан шаклланиб келмоқда. Жумладан, қадимги Грецияда муаммоли савол-жавоблар, қадимги Ҳиндистон ва Хитойда муаммоли баҳс-мунозаралардан кенг фойдаланилган. Муаммоли таълимни америкалик психо-

лог, файласуф ва педагог Дж. Дьюи 1894 йилда Чикагода ташкил этган ва тажриба мактабида қўллаган. XX асрнинг 60-йилларида бу йўналишда тадқиқотлар олиб борилди. 70–80-йилларга келиб, амалиётга кенг жорий этилди. Муаммоли таълим технологиялари ўқувчи фаолиятини фа-

оллаштириш ва жадаллаштиришга асосланган. Муаммоли таълим технологиясининг асоси инсоннинг фикрлаши муаммоли вазиятни ҳал этишдан бошланиши ҳамда унинг муаммоларни аниқлаш, тадқиқ этиш ва ечиш қобилиятига эга эканлигидан келиб чиқади. Муаммоли таълим ўқувчиларнинг ижодий тафаккури ва ижодий қобилиятларини ўстиришда жиддий аҳамиятга эга.

Асосий қисм. Муаммоли таълимнинг бош мақсади – талабаларнинг муаммони тўлиқ тушуниб етишига эришиши ва уларни ҳал эта олишга ўргатишдан иборат. Муаммоли таълимни амалиётда қўллашда асосий масалалардан бири ўрганилаётган мавзу билан боғлиқ муаммоли вазият яратишдан иборат.

Турли ўқув фанлари бўйича талабалар дарс ўтиш жараёнида муаммоли вазиятлар ҳосил қилишни ва уларни ечиш усулларини олдиндан кўзда тутишлари керак.

Муаммоли вазият яратиш усуллари:

- ўқитувчи талабаларга дарс мавзуси билан боғлиқ зиддиятли ҳолатни тушунтириш ва уни ечиш йўлини топиш;
- бир масалага доир турли нуқтаи-назарларни баён қилиш;
- ҳал этиш учун етарли бўлмаган, ортиқча маълумотлар бўлган ёки саволнинг қўйилиши нотўғри бўлган масалаларни ечишни таклиф этиш ва бошқалар.

Муаммоли вазиятни ҳал этиш даражалари:

- ўқитувчи муаммони қўяди ва ўзи ечади;
- ўқитувчи муаммони қўяди ва унинг ечимини талабалар билан биргаликда топади;
- талабалар ўзлари муаммони қўядилар ва унинг ечимини топадилар.

Муаммоли вазиятни ечишда қўлланиладиган усуллар:

- муаммони турли нуқтаи назардан ўрганиш, таҳлил қилиш;
- солиштириш, умумлаштириш;
- фактларни аниқлаш ва қиёслаш;
- вазиятга боғлиқ хулосалар чиқариш;
- талабаларнинг ўзлари аниқ саволлар қўйиши ва бошқалар.

Муаммоли таълимнинг асосий билимларни талабаларга тайёр ҳолда бериш эмас, улар томонидан дарс мавзусига тегишли муаммолар бўйича ўқув-тадқиқотларини бажариш асосида ўзлаштирилишини таъминлашдан иборат.

Ўзбекистонда муаммоли таълимни қўллаш бўйича бир неча асрлар давомида мактаб ва мадрасаларда суқротона савол-жавоб усулидан кенг фойдаланиш асосида ўқувчиларда зийраклик ҳозиржавоблик сифатлари ҳамда гўзал нутқ таркиб топтирилган. Суқротона савол-жавоб усули ҳозиргача энг самарали таълим усулларида бири сифатида қўлланилади. Бунда талаба чуқур мантикий фикрлашга, зийракликка, аниқ ва тўғри сўзлашга, нутқнинг мантиқийлиги ва равонлигига ҳамда танқидий, ижодий фикрлашга ўргатилган. Масалан, суқротона суҳбатлар деганда ўқитувчининг ўқувчини мустақил ва фаол фикрлаш жараёнига олиб кириши ҳамда унинг фикрлашидаги нотўғри жиҳатларни зийраклик билан аниқлаган ҳолда уларни тузатиш йўлига олиб чиқишдан иборат усуллар назарда тутилади.

Бундай суҳбат босқичларини қуйидагича соддалаштириб ифодалаш мумкин:

Бундан кўриниб турибдики, ушбу усул юқори натижа бериши шубҳасиз бўлиб, аммо бунинг жиддий шартлари ҳам мавжуд. Булар ўқитувчининг кенг билимга ва ижодий фикрлаш қобилиятига, юқори мулоқот маданиятига, педагогик маҳоратга эга бўлиши кабилардан иборат.

Муаммоли таълим машғулотларини ташкил этиш ва бошқариш қуйидаги босқичларни ўз ичига олади:

- ўқув фани ва дарслар мавзусини ўргатишда улар билан боғлиқ муаммоли масалаларни белгилаш;
- улардан муаммоли вазиятлар ҳосил қилиш ва амалда фойдаланишни олдиндан режалаштириб бориш;
- ўқувчиларнинг тайёргарлик даражасини ҳисобга олиш;
- зарур ўқув воситаларини тайёрлаш;
- муаммоли вазиятдаги мавжуд зиддиятни кўрсатиш;
- топшириқни ва уни ечиш учун етарли шартларни аниқ баён қилиш;
- талабаларнинг муаммони ҳал этишда йўл қўяётган хатоларини, уларнинг сабабини ва хусусиятини кўрсатиш;
- талабаларнинг нотўғри тахминлари асосида чиқарган хулосалари оқибатини муҳокама этиб, тўғри йўлни топишларига қўмаклашиш ва бошқалар.

Муаммоли таълим жараёнини қуйидаги учта асосий босқичга ажратиш мумкин:

1. Муаммоли вазият ҳосил қилиш.
2. Муаммони ечиш тахминларини шакллантириш.
3. Ечимнинг тўғрилигини текшириш (олинган ечим билан боғлиқ ахборотни тизимлаштириш орқали).

Муаммоли вазият ҳосил қилишда қуйидагилар ҳисобга олинishi лозим: муаммолар назарий ёки амалий йўналишда бўлади.

Дарсда ҳосил қилинадиган муаммоли вазият ҳамда талабаларга ҳал этиш таклиф этиладиган муаммога қўйиладиган энг асосий талаб–талабаларнинг қизиқишини оширадиган, энг камида эса талабаларда қизиқиш ҳосил қиладиган бўлиши кераклигидир. Акс ҳолда кўзда тутилган натижага эришишнинг имкони бўлмайди.

Муаммо талабаларнинг билим даражаларига ҳамда интеллектуал имкониятларига мос бўлиши шарт, ҳосил бўлган муаммоли вазиятни ечиш учун топшириқлар янги билимларни ўзлаштиришга ёки муаммони аниқлаб, яққол



ифодалаб беришга ёки амалий топшириқни бажаришга йўналтирилган бўлади. Талабаларнинг муаммоли вазиятни тушунишлари, унинг келиб чиқиши сабаблари ҳамда нималарга, қанчалик даражада боғлиқлигини идрок қила олишлари натижасида ҳосил бўлади. Бундай тушуна олиш эса талабаларга мустақил равишда муаммони ифодадай олиш имкониятини беради.

Муаммони ечиш тахминларини шакллантиришда талаба ўзлаштирган билимлари асосида кузатиш, солиштириш, таҳлил, умумлаштириш, хулоса чиқариш каби ақлий фаолиятларни бажаради. Ақлий фаолиятдаги асосий жараён фикрлаш жараёни бўлиб, фикрлашнинг сифати унинг мантиқийлиги, мустақиллиги, ижодийлиги, илмийлиги, асослилиги, узвийлиги, тежамлилиги, мақсадлилиги, тезлиги, таҳлилийлиги, қиёсийлиги, умумлаштирилганлиги, хусусийлаштирилганлиги, кенглиги, чуқурлиги, ишонарлилиги, реаллиги, ҳаққонийлиги даражаси билан белгиланади.

Шу билан бирга интеллектуал сифатлар хотира, таъсавур, англаш ва шу каби психологик жараёнларнинг тезлиги ҳамда бошқа параметрлари билан боғлиқ.

Интеллектуал тараққиёт даражаси ўқитувчиларда ҳамда талабаларда қанча юқори бўлса, шунчалик яхши натижаларга эришиш имконияти ҳосил бўлади.

Шунга кўра талабаларда муаммони сезиш, уни аниқлаш, ечимига доир тахминни тўғри белгилаш ва ечимнинг тўғрилигини текшириш қобилиятлари ривожланиб боради.

Хулоса. Муаммоли таълим технологияси талабаларга предметнинг мавзусидан келиб чиққан турли муаммоли масала ёки вазиятларнинг ечимини тўғри топишларига ўргатиш, уларда муаммони ечишнинг баъзи усуллари билан таништириш ва муаммони ечишга мос услубларни тўғри танлашга ўргатиш муаммонинг келиб чиқиш сабабларини ва муаммони ечишдаги хатти-ҳаракатларни тўғри аниқлашга ўргатишдир.

№	References	Адабиётлар
1	Uzbekistan Respublikasining Kadrlar tayerlash milliy dasturi [National Program of Personnel Training of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Shark Publ., 1997.	Ўзбекистон Республикасининг "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури". - Тошкент, "Шарк", 1997.
2	V.P.Bespal'ko. Pedagogika i progressivnye texnologii obucheniya [Pedagogy and progressive learning technologies] Moscow, 1995.	В.П. Беспалько. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. - Москва, 1995 год.
3	V. Gruzdev. Ot metodik k obrazovatel'noy tekhnologii [From techniques to educational technology] Journal of Narodnye obrazovanie. Moscow, 1998	В. Груздев, "От методик к образовательной технологии // Ж.: "Народные образование". – М., 1998.
4	A.N.Daxin, Pedagogicheskiy monitoring-kontseptsiya i primeneniye. [Pedagogical monitoring - concept and application]. Moscow, Shkol'naya texnologiya. no. 3. 1997	А.Н.Дахин, "Педагогический мониторинг - концепция и применение". – М., "Школьная технология". №3. 1997.
5	Zh.G.Yuldoshev. Yangi pedagogik texnologiya yunalishlari, muammolari, echimlari. [New pedagogical technology trends, problems, solutions]. Journal Khalk ta'limi. Tashkent, 1994. no.4.	Ж. Г. Йўлдошев. "Янги педагогик технология йўналишлари, муаммолари, ечимлари // Ж.: "Халқ таълими" - Тошкент, 1999. - №4.
6	Karimov I.A. Uzbekistan – buyuk kelazhak sari. [Uzbekistan is a great future]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 1998. 686 p.	Каримов И.А. Ўзбекистон – буюк келажак сари. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – 686 б.
7	Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. [High spirituality is an invincible force]. Tashkent, Ma'naviyat Publ., 2008. 176p	Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. - Тошкент. "Маънавият", 2008. – 176 б.
8	Karimov I.A. Yuksak bilimli va intellektual rivozhlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barkaror tarakkiy ettirish va modernizatsiya kilishning eng mukhim sharti mavzusidagi ma'ruzasi [Educating a Well-Educated and Intellectually Developed Generation - The Most Important Prerequisite for Sustainable Development and Modernization of the Country]. Tashkent, 2012 yil, 17 fevral.	Каримов И.А. «Юксак билимли ва интеллектуал ривожланган авлодни тарбиялаш – мамлакатни барқарор тараққий эттириш ва модернизация қилишнинг энг муҳим шarti» мавзусидаги маърузаси. Тошкент, 2012 йил 17 февраль.
9	Mirzиеev Sh.M. Buyuk kelazhakni mard va oliyghanob khalkimiz bilan birga kuramiz [We will build our great future together with our brave and noble people]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 2017. 488 p.	Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мard ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.

10	Mirzieev Sh.M. Konun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt tarakkiyoti va khalk farovonligining garovi [The rule of law and the interests of the people are the basis of the development of the country and the welfare of the people]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 2017, 48 p.	Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 48 б.
11	Mirzieev Sh.M. Tankidiy takhlil, kat'iy tartib-intizom va shakhsiy javobgarlik – khar bir rakhbar faoliyatining kundalik koidasi bulishi kerak [Critical analysis, strict disciplinary discipline, and personal responsibility - should be the daily rule of every leader's activity]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 2017. 104 p.	Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
12	Mirzieev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Uzbekistan davlatini birgalikda barpo etamiz [We build a free and prosperous democratic state of Uzbekistan]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 2016. 56 p.	Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.:Ўзбекистон, 2016. – 56 б.
13	Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Karori Oliy ma'lumotli mutakhassislar tayirlash sifatini oshirishda iqtisodiy sohalari va tarmoklarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari tugrisida [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to further enhance the participation of industries and sectors of the economy in improving the quality of training of highly-qualified specialists] 27.07.2017 y., PK-3151, Uzbekistan Respublikasi konun huzhzhatlari tuplami, 2017 y. 30-son, 729 modda.	Ўзбекистон Республикаси Президенти Қарори “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”. 27.07.2017 й., ПҚ-3151, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 30-сон, 729-модда.
14	Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Karori Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tugrisida. [Presidential Decree On Measures for Further Development of Higher Education System] 20.04.2017 y., PK-2909, Uzbekistan Respublikasi konun huzhzhatlari tuplami, 2017y. 18 son, 313 modda, 19 son, 335 modda, 24 son, 490 modda	Ўзбекистон Республикаси Президенти Қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”. 20.04.2017 й., ПҚ-2909, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 18-сон, 313-модда, 19-сон, 335-модда, 24-сон, 490-модда.
15	Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoyishi Uzbekistan Respublikasini yanada rivozhlantirish buyicha Xarakatlar strategiyasi tugrisida. [Presidential Decree On Measures for Further Development of Higher Education System] 20.04.2017 y., PK-2909, Uzbekistan Respublikasi konun huzhzhatlari tuplami, 2017 y. 18 son, 313 modda, 19 son, 335 modda, 24 son, 490 modda	Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармойиши “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”. 07.02.2017 й., ПФ-4947, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда, 20-сон, 354-модда, 23-сон, 448-модда.
16	Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Karori Kishlok va suv xuzhaligi tarmoklari uchun muhandis – texnik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari tugrisida [Resolution by the President of the Republic of Uzbekistan On measures to radically improve the system of training engineers and technical staff for the branches of agriculture and water economy]. 24.05.2017 y., PK-3003, Uzbekistan Respublikasi konun huzhzhatlari tuplami, 2017 y.	Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори “Қишлоқ ва сув хўжалиги тармоқлари учун муҳандис-техник кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 24.05.2017 й. ПҚ- 3003, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й.
17	Islom Karimov. Barkamol avlod – Uzbekistan tarakkiyotining poydevori [Ideal Generation - the foundation of the development of Uzbekistan]. Tashkent, Shark Publ., 1997 y.	Islom Karimov “Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” Toshkent “Sharq” 1997 y.
18	Islom Karimov Uzbekistan – kelazhagi buyuk davlat [The future of Uzbekistan is a great state]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 1992 y.	Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. - T.: O'zbekiston, 1992.

19	Sh.M.Mirzиеev. Tankidiy tahlil, kat'iy tartib – intizom va shakhsiy zhavobgarlik – khar bir rakhbar faoliyatining kundalik koidasi bulishi kerak [Critical analysis, strict disciplinary discipline, and personal responsibility - should be the daily rule of every leader's activity]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 2007 y.	Sh.M.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shakhsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent, O'zbekiston, 2017 y.
20	Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi "Urta makhsus, kasb – khunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tugrisida"gi PK-2829-sonli karori [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan from March 14, 2017 "About measures on further enhancement of activities of secondary special, professional educational institutions" PQ-2829].	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2829-sonli qarori
21	Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivozhlantirish chora-tadbirlari tugrisida"gi PK-2909-sonli karori [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan from April 20, 2017 " About measures for further development of higher education system " PQ-2909].	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori.
22	Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi "Kishlok va suv xuzhaligi tarmoklari uchun mukhandis – tekhnik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari tugrisida"gi PK-3003-sonli karori [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan from April 20, 2017 " Resolution by the President of the Republic of Uzbekistan On measures to radically improve the system of training engineers and technical staff for the branches of agriculture and water economy " PD-2909].	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi "Qishloq va suv xo'jaligi tarmoqlari uchun muhandis- texnik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3003-sonli qarori
23	Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 28 may kuni kabul kilingan "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash khamda urta makhsus kasb-khunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlari tugrisida"gi Karori [Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated May 28, 2012 "On Measures for Further Improvement of the System of Qualified Pedagogical Cadres and Provision of Personnel in Specialized Secondary Vocational Education Facilities"].	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 28 may kuni qabul qilingan "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta mahsus kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.